

**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishida ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida
dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
2.	Qurilish materiallarining ekologik xavfsizligini zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari bazasida nazorat qilish hamda baholash texnologiyasini ishlab chiqish.  	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: mahalliy xomashyolar, sanoat chiqindilari va kompozitsion qurilish materiallari (devorbop va konstruktiv bloklar, yengil betonlar, bog‘lovchilar hamda issiqlik izolyatsiyasi materiallari) va ularning kimyoviy hamda radiologik tarkibini zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari (IQ-spektroskopiya, SEM, XRD, DTA/TG va XRF) bazasida kompleks o‘rganish orqali ularning ekologik xavfsizligi va sifatini nazorat qilish hamda baholash texnologiyasi ishlab chiqiladi; zamonaviy infraqizil spektroskopiya va elektron mikroskopiya usullari asosida qurilish materiallaridan havoga ajraladigan uchuvchan organik birikmalar (VOC) va zaharli gazlar miqdori 85.0–92.0 foizgacha aniqlikda nazorat qilinadi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, materiallarning issiqlik-fizik xossalari va g‘ovaklik strukturasi DTA/TG usulida tahlil qilinib, issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti oralig‘idagi yengil va energiya samarador materiallarni tanlab olish amalga oshiriladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. O‘zsanoatqurilishmateriallari uyushmasining hamkor korxonalaridan sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish. “Ilmiy maqolalar xalqaro e’tirof etilgan Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazalariga kiritilgan nufuzli jurnallarda hamda OAK ro‘yxatidagi respublika va xalqaro ilmiy nashrlarda hamda konferensiya to‘plamlarida chop etiladi”. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.